



TILAME

**Qiziqarli
ko'rsatuvlar. Televideniye
vatani.**
(Ergashgan qo'shma gaplar.)



**FAN- O'ZBEK TILI
O'QITUVCHI- MAMARAJABOVA IRODA FAYZULLAYEVNA**



TIIAME

REJA:

- ▶ 1. Televideniye vatani.
- ▶ 2. Ergashgan qo'shma gaplar.
- ▶ 3. “Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi” she'ri





Qadimda odamlar uchar gilam va oynai jahonni orzu qilganlar. Samolet va televideniye ana shu orzularni voqelikka aylantirdi.

Televideniye yunoncha «tele» – uzoq, «videniye» – ko‘rish so‘zlaridan olingan bo‘lib, uzoq va katta masofadagi harakatni ko‘rsatish va ko‘rish ma’nosini anglatadi.



TIIAME



Bugungi kunda televideeniye odamlarga ma’naviyat va ma’rifat tarqatish, tarbiya berish, axborot uzatishning bosh manbai hisoblanadi, shuning uchun ommaviy axborot vositalari orasida yetakchi o‘rin tutadi.



TIIAME



Televideniying mo‘jizakor
kuchi shundaki, u bir joyda turib
jahonning istalgan burchagini
ko‘rish imkonini beradi.
Ma’lumki, televideniye sohasida
dastlabki qadamlar
o‘zbekistonlik ixtirochilar B.
Grabovskiy va I. Belyanskiylar
tomonidan qo‘yilgan va ular
1928-yil «telefot» apparati
yordamida harakatlanuvchi tasvir
Toshkent shahrida masofaga
uzatilgan.



TIIAME



Tramvay trestidan uzatilgan harakatlanuvchi tasvir Toshkent shahri, Baland (Bolo) Masjid ko‘chasida yashovchi Mirzamuhamedovlar uyida qabul qilingan. Toshkent televide niye vatani hisoblansa-da, televizion ko‘rsatuvlarni efirga uzatish 1956-yil 5-noyabrdan boshlangan va shu yili «Toshkent televide niye studiyasi» tashkil etildi.



TIIAME



Hozirgi kunda Toshkent telemenorasi balandligi jihatidan
Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. O'zbekiston
televideniyesining teledasturlari orqali berilayotgan ko'rsatuvlar
jahonning o'ndan ortiq mamlakatiga uzatiladi.



TIIAME





TILAME


LUG‘AT

manba – источник	ommalashmoq – становиться массовым
amalga oshirmoq – осуществлять	teleminora – телевышка
ko‘rsatuv – передача	namoyish qiladi – демонстрировать, показывать
teledastur – телепрограмма	

Bilib oling!

Biri ikkinchisi bilan tobe munosabatda bog‘langan sodda gaplar ergashgan qo‘shma gaplar deyiladi. Bunday gaplar bosh gap va ergash gap qismlaridan tuziladi va quyidagicha bog‘lanadi:

1. Bosh *gap* + *ergash gap*: To‘g‘rilarga ergashing, chunki ular sizni noto‘g‘ri yo‘lga boshlamaydilar.
2. Ergash *gap* + *bosh gap*: Erta eksang, erta o‘rasan.



1-mashq. Berilgan qo'shma gaplarni bosh va ergash gap qismlariga ajrating. Ergash gapninig gapdag'i o'rmini ko'rsating.

1. Odobli bola elga manzur, chunki odob axloqning yuqori ko'rinishidir.
2. Qish kelganda, qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadilar.
3. Kim sayohatga boradigan bo'lsa, ro'yxatga yozilsin.
4. Hosil mo'l bo'lsin deb, daraxtlarni yaxshilab parvarishladik.
5. Qayerda xalollik bo'lsa, o'sha yerda baraka bo'ladi.
6. Kimning bilimi puxta bo'lsa, albatta, baholari ham yuqori bo'ladi.





3-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Savoll va topshiriqlar ustida ishlang.



TIIAME

Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi

Sen bukun sinfda shod yurak bilan,
Sinov navbatini kutib turasan.
A'lo mamlakatning a'lo farzandi,
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!

Globusda bo'lgan har kichik nuqta
Millionlab qondoshga vatan,
albatta.
Mustasno xalqimiz yashar adabiy,
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!

She'rdir, lirika, balki oddiy til,
Xalqlarning tillari bir xil emas, bil!
Diplomat bo'larsan, shu bukun, endi,
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!


Fanlar ko'p, fanlar bor o'rganishga
kuch:
Yerda yur, suvda suz, osmon uzra uch.
Hammasidek a'lo barchadan oldin
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!



G'afur G'ulom

LUG'AT

sinov – испытание	abadiy – вечный
qondosh – кровный	shu bukun – сегодняшний день
mustasno – исключение	uzra – по (предлог)





TIIAME

► **Uyga vazifa.**



“Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi” she’rini yod oling.



E'tiboringiz uchun rahmat!